

CAUSES AND CONSEQUENCES OF DIABETES

Seeker: Muhammadiyev Toxir.

Scientific rahabar: Sobirova Dildora Ravshanovna

Tashkent Medical Academy

QANDLI DIABET KASALLIGINING SABAB VA OQIBATLARI

Izlanuvchi:

Muhammadiyev Toxir

Ilmiy rahabar: Sobirova Dildora Ravshanovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Qandli diabet - surunkali moddalar almashinuvining buzilishi bilan bog'liq metabolik kasallik bo'lib, ushbu kasallik insulinini etishmovchilik va qon glyukoza darajasining oshishi bilan kuzatiladigan kasallikdir. Ushbu kasallikda quyidagi belgilar kuzatiladi: chanqoqlik hissi, ajraladigan siydik miqdorining ko'payishi, ishtahaning kuchayishi, holsizlik, bosh aylanishi, yaralarning sekin bitishi va boshqalar. Qandli diabet surunkali insulin etishmovchiligi natijasida rivojlanuvchi va uglevodlar, oqsillar va yo'lar almashinuvining buzilishi bilan birga kechadigan kasallik bo'lib, insulin oshqozon osti bezida Langergans orolchalarining B-hujayralari tomonidan ishlab chiqariladi. Insulin qon glyukoza miqdorini tartibga soladi, jigarda glikogen sintezini boshqaradi, uglevod birikmalarining parchalanishini kamaytirib, oqsil sintezini kuchaytiradi. Insulin tomonidan boshqariladigan metabolik jarayonlarning buzilishi insulin sintezining yetarli emasligi (I-tip diabet) yoki to'qimalarning insulinga chidamliligi (II-tip diabet) bilan rivojlanishi mumkin.

Qandli diabet-tanada uglevod va suv almashinuvining buzilishi natijasida yuzaga keladigan kasallik bo'lib, ushbu kasallik oqibatida me'da osti bezi funksiyasi buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallik. Me'da osti bezi

insulin ishlab chiqaradi. Insulin qandni qayta ishlashda qatnashadi. Bu gormonsiz organizm qondagi glyukoza miqdorini me'yorda ushlab tura olmaydi va uning miqdori oshib ketadi. Natijada organizm ortiqcha glyukozani siydik orqali chiqarib yuboradi. Kasallikni turlash muhim hisoblanadi, chunki bu kasallikning turlari boshlang'ich davrda bir-biridan tubdan farq qiladi.

1-tip diabet, shuningdek, insulinga bog'liq diabet surunkali kasallikning shakli bo'lib, u organizmda insulin etarli darajada ishlab chiqarilmasligi bilan tavsiflanadi. Bu organizm hujayralariga qondan glyukozani so'rib olish va uni energiya manbai sifatida ishlatishga yordam beradi. 1-tip diabetda tananing immunitet tizimi insulin ishlab chiqarish uchun mas'ul bo'lgan oshqozon osti bezi hujayralariga noto'g'ri tasir qiladi va ularni yo'q qiladi. Ushbu jarayon natijasida tanada keyinchalik insulinni samarali ishlab chiqarmaydi yoki etarli miqdorda ishlab chiqarmaydi. 1-tip diabet bilan og'rikan bemorlar qondagi glyukoza darajasini nazorat qilish uchun doimiy ravishda tashqi sun'iy insulin kiritishni talab qiladi. Bunga insulin in'ektsiyalari, insulin nasoslaridan foydalanish yoki insulin nasoslarini implantatsiya qilish orqali erishish mumkin. Oqibatida organizm me'da osti bezi hujayralarini yo'q qiluvchi antitana ishlab chiqaradi. Diabetning 1-tipidan butunlay davolanib bulmaydi, lekin ba'zi hollarda bez faoliyatini me'yorida ushlab turib, parhezga amal qilinsa, kasallik bemorni ortiqcha bezovta qilmaydi. Doimiy ravishda sun'iy insulin qabul qilishi talab etiladi. Insulin oshqozon-ichak traktida parchalanib ketishi bois, u faqat ineksiya orqali ovqatlanish vaqtida kiritiladi. Qat'iy parhezga amal qilib, ovqat ratsionidan yengil hazm bo'luvchi uglevodlarni (shakar, shirinliklar, mevali sharbatlar) butunlay chiqarib tashlash kerak.

2-tip diabet bu insulinga bog'liq bo'lmagan diabet deyiladi. Ko'pincha yoshi kottalar, 40 yoshdan o'tganlar aziyat chekadi. Sababi;

hujayralarning oziq ko'pligidan insulinga ta'sirchanligini yuqolishidir. Kasallikni davolashda har doim ham insulin kerak bulavermaydi.

Bemorlarda kasallik paydo bo'la boshlaganida quyidagi alomatlar kuzatiladi; Og'iz doimo qurishi, chanqash, siydik ajralishini kuchayishi, ozish, terining quruqlashishi va qichishi, yumshoq to'qimalarda yaralar paydo bulishi, mushaklar kuchsizlanishi, yaralarni qiyin bitishi.

Kasallik jiddiy asoratlar qoldirishi va koma holatiga tushishi mumkin, bunda zudlik bilan shifokorga murojat qilishi kerak buladi.

Kasallik alomatlariga; ko'rishning buzilishi, bosh og'rig'i va aqliy faoliyat pasayadi, yurak og'rig'i, jigarning kattalashishi, oyoqlarda kuchli og'riq bulishi va yurish qobilyati qiyinlashishi, oyoqlarda sezgirlik kamayadi, yaralar paydo bo'ladi, qon bosimini oshishi, yuz va oyoq shishishi, odamdan aseton hidi kelishi